

CHINGIZ AYTMATOVNING "OQ KEMA" QISSASINI ADABIY TA'LIMDA PRAGMATIK YONDASHUV ORQALI O'RGANISH

Ergasheva Iroda Abdumuxtor qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti
magistri, Toshkent, O'zbekiston
Irodaergasheva@gmail.com

Annotation.

This article discusses the study of Chingiz Aitmatov's story "The White Ship" in Uzbek literary education through a pragmatic approach. Certain conclusions are drawn about the advantages of such an approach. Recommendations on the work are developed.

Keywords:

Kyrgyz literature, Chingiz Aitmatov, The Story of the White Ship, pragmatic approach.

Pragmatizm (grekcha πράγμα, πράγματος — «ish, harakat»)- dunyoda keng tarqalgan falsafiy-amaliy yondashuv.[1. Vikipediya.org] U juda ko'p sohalarda muvaffaqiyatlari qo'llanib kelinmoqda.

Ma'lumki pragmatizm allaqachon dunyo adabiy ta'limiga joriy qilina boshlangan. Jon Dyui, Ch. Pirs, U. Jems kabi olimlar bu yondashuvning samarali ekanligini isbotlashgan. Eng avval "Pragmatizm" bu "nima foydali bo'lsa, shu haqiqat" ekanini anglab olmoq kerak. Mashhur olim Jon Dyui "Maktab va jamiyat" kitobida pragmatik nuqtai nazardan maktablar qanday prinsiplar asosida ishlashi kerakligi bayon qilingan. [1. Jon Dyui. «Школа будущего»]

Adabiy ta'limda Pragmatik yondashuv- faqat yodlash va grammatick topshiriqlarni bajarishga emas, balki o'quvchilarning real hayotiy dasturlariga, amaliy va kundalik tajribalariga asoslangan o'quv jarayonlarini tashkil etishga qaratilgan yondashuvdir. Bunda o'quvchilarning o'rganayotgan bilimlari, hayotiy ko'nikmalari bilan munosabat o'rnatiladi. O'quvchilar badiiy asarlarni o'zlarining hayotiy tajribalariga ega bo'lishlari, asardan xulosalar chiqarishlari maqsadida o'qishlari kerak. Darsliklardagi mavzularning ko'pi esa o'quvchilarni faqat asarni yodlashga va test ishlashga tayyorlamoqda. O'qituvchi o'z fikrini va darslik muallifi fikrini o'quvchilarga singdirmoqda. Bolaning mustaqil fikrlari esa muhimlik darajasini yo'qotgan.

Pramatik kompetensiya - nutq harakatlari, nutq funksiyalari va ular bilan bevosita bog'liq bo'lган bilimlarni muayyan kontekstlarda foydalana olish. Kasper: "Maqsadli va muvaffaqiyatlari muloqot qilish uchun pragmatik kompetensiya yaxshi rivojlangan bo'lishi kerak va buni rivojlantirish oson emas." [2. Kasper, Kasper G. Can pragmatic competence be taught?] Sotsiologik kompetensiya - pragmatik kompetensiyaning bir qismi bo'lib, tegishli matnga muvofiq tildan to'g'ri foydalana olish qobiliyat, til birliklarini kontekstual xususiyatiga qarab qo'llay olish. Badiiy asar tahlilida bu juda muhimdir. Ya'ni asardagi nutqiy vaziyatlarni tushuna olish, ularni to'g'ri talqin qilish muhim omil sanaladi. Badiiy matnlarni to'g'ri va mustaqil tahlil qilish o'quvchilarda pragmatik kompetensiyanı rivojlantiradi. Chingiz Aytmatovning "Oq kema" asarida yozuvchi millat miqyosidagi, ijtimoiy-madaniy, ma'naviy-axloqiy muammolarni aks ettiradi va bu muammolar kitobxon diqqatini ham tortadi. [3. Chingiz Aytmatov. "Oq kema".] "Oq kema" asarini tahlil qilishda asar kompozitsiyasiga alohida diqqat qaratish lozim. Asar kompozitsiyasi kuchli va ifodaviy badiiy usul - zidlash usulida namoyon bo'ladi, ya'ni o'zaro zid obrazlarning qarama-qarshiligidagi asoslangan. Mo'minchol va O'rozqul munosabatlari qarama-qarshilik asosida bayon etilgan. Shuningdek, asar kompozitsiyada biz qaytariq usulini ham uchratishimiz mumkin: asar voqealar tartibsizdek, lekin voqealar so'ngida asar boshi va oxiri bir-biriga bog'lanib, yaxlit kompozitsiyani tashkil etadi. Asarda obrazlar soni unchalik ko'p emas. Lekin obrazlarning ruhiyatidagi kechinmalari, xissiyotlari tasavvurlari, o'y-hayollari tasviriga keng o'rinn berilgan, qahramonlar gap-so'zlari, qiliqlari ularning xarakterlariga muvofiq holda tasvirlangan.

Ijodkorning bu mahorati esa asarning ta'sirchanligini, badiiy qimmatini yanada oshirgan.

Bosh qahramonlar - asar mazmunining barcha darajalariga aloqador qahramonlar: Mo'minchol, bola, O'rozqul, Shoxdor ona bug'i, kema

Ikkinchi darajali qahramonlar: bosh qahramon timsolini to'laroq ochilishiga xizmat qilgan qahramonlar: Bekey xola, buvi, Seydahmad, Guljamol, Qulibek, O'rozqulning do'stlari, Ko'katoy, Cho'tir Baymoq, Botir qulchi, marhumning o'g'llari, ko'chma do'kon sotuvchisi

O'rta mактабning 7-sinfida o'рганиладиган "Oq kema" asari tahlili uchun mo'ljallangan **pragmatik yondashuv savollari** quyidagicha:

1. Asar nega "Oq kema" deb nomlangan. Kemalarni ko'рганмисиз? Kemalarga chиqqанмисиз? Kema yasab ko'рганмисиз? Oq qog'oz va yog'ochlardan foydalaniб, kema yasang. Kemangiz bolaning kemasiga o'xshadimi? Bola o'z kemasini qanday tasvirlab bergandi?

2. Mo'mincholning sodda, sipoligi, kamtarlik, oqko'ngil, mehnatsevarlik xislatlarini qanday baholaysiz? Hayotda Mo'mincholdek inson bo'lish kerakmi?

3. Bobongizni tasvirlab bering. Bobongizning Mo'mincholga o'xhash xislatlari bormi?

4. Asarda qирг'из xalqining urf-odatlari, tarixi haqida nimalarni bilib oldingiz? Sizningchi urf-odatlarni hayotimizdagи o'rni qanchalik muhim?

5. Bolaning o'z tengdosh do'stlari yo'q. Shuning uchun u tabiatdagi o'simliklar va toshlar, ko'llar, daraxtlar, kemalar bilan do'st. Sizningcha do'stlik nima? Sizning do'stlaringizdagi qaysi xislatlarni qadrlaysiz. Chin do'st bo'lishda nima muhim deb o'ylaysiz? Chin do'stingizni tasvirlab bering.

6. Mo'mincholning bolaga sumka olib bergenidan so'ng bolaning xursandchiligi haqida aytib bering. Sizga ham ota-onanngiz sumka olib bergenida xursand bo'lasizmi? Sumka va o'quv qurollaringizni boladek asrab-avaylaysizmi?

7. ...bola o'qishga tutinganidan beri qo'li siyohdan arimay qoldi. ...Bola ko'zini ochgan zahoti, apil-tapil kiyinib, papkasiga kitob-daftarlарini solardi... Bolaning bu harakatlari sizda qanday taassurot uyg'otdi. Siz ham maktabungizni,o'qituvchilaringizni yaxshi ko'rasizmi? Har kuni boladek maktabga shoshilasizmi?

8. Agar siz ham o'z tengdoshlaringizda uzoqda yashaganingizda kimlar yoki nimalar bilan do'st bo'lardingiz? Do'stlik hayotingizda qanchalik muhim o'rин tutadi? Do'stlarsiz ham yashash mumkinmi? Chin do'stingizda qay xislatlar bo'lishini xohlardingiz?

9. Bola yashayotgan hududda maktab yo'q. Shunday bo'lsa ham o'qishga ishtiyоqi tufayli uzoq bo'lsa Jilisoydagi maktabga qatnab o'qiydi. Havo sovuq bo'lishiga qaramasdan maktabdan bir kun ham qolmaydi. Sizning maktab va o'qishga munosabatingiz qanday? Maktabingiz uyingizga yaqin hududdami? Siz ham boladek maktabga har kuni oshiqasizmi? Bola bilan o'zingizni taqqoslang.

10. Bolaning baliqqa aylanib uzoqlarga suzib ketish orzusi bor. Bolaning bu orzusini amalgaga oshirib bo'ladimi? Sizningchi bola baliqqa aylanib qayerga suzib bormoqchi?

11. O'rozqulning xarakteridagi nuqsonlarni toping. Siz O'rozquldek bo'lishni xohlarmidingiz? Birovlarning mehnatini qadrlamaslik yaxshi odatmi? Yoki birovlarining mehnati evaziga kun ko'rish yaxshimi? Siz hayotda qanday insonsiz? Mehnatkashlik siz uchun nima?

12. "...O'rozqulning uyi derazasidan esa mast kishilarning qahqahlab kulishlari-yu, qiyqiriq ovozlari eshitilardi. Bu yovvoyi qahqaha bolani garang qildi, uning qalbida chidab bo'lmas dard-alamlarni qo'zg'adi. Bu daxshatli qahqaha eshitish ko'nglini behuzur qilayotgандек tuyildi..." Sizningcha ichkilik ichish yaxshi odatmi? Siz O'rozqulga nima degan bo'lardingiz? Uning mast holda qilgan harakatlarimi yaxshimi?

13. Shoxdor ona bug'ini qanday tasavvur qilasiz? Shoxdor ona bug'i qирг'из xalqining hayotida qanday o'rин tutadi? Siz uchun tabiat va hayvonot dunyosi nima? Tabiat va hayvonot dunyosiga qanday munosabatda bo'lishimiz kerak?

14. Xalqlar va millatlar urushi deganda nimani tushunasiz? Sizningcha, muammolar qanday hal qilinishi kerak? Urush orqali? Yoki tinch muzokaralar orqalimi? Odатда do'stlaringiz va yaqinlaringiz o'rtasidagi kelishmovchiliklarni qanday hal qilasiz?

15. Asarga nega aynan "Oq kema" deb nom berilgan? Bola nima uchun oq kemani bunchalik yaxshi ko'radi? Oq kemaga yetib borishni va unga chiqishni nega bunchalik xohlaydi. Oq kema nimaning

ramzi?

16. Bola tez-tez nega ko'p narsalarni tasavvurida gavdalantiradi, o'zi bilan o'zi gaplashadi? Uning tasavvurida o'y-hayollari bola uchun qanchalik muhim?

Ta'lrim oluvchilar bu savollari orqali asardagi mavjud g'oyalarni o'zlari kashf etadilar, o'zlari muhokama qiladilar, o'z fikrlarini erkin bildiradilar. Shaxsiy xarakterlarini asar qahramonlari xarakterlari bilan taqqoslaydilar, o'zlarini asar qahramonlari o'rniga qo'yib ko'radilar, qiyin vaziyatlarda qilish lozim bo'lgan to'g'ri yo'llarni topishni o'rGANADILAR va ma'lum darajada o'zlari uchun kerakli xulosalarni oladilar.

"Ramz faqat shartli ravishda va shu matn doirasida ko'chma ma'no kasb etuvchi so'z yoki so'z birikmasi, obrazlilik turi" [4. H. Boltaboyev 112-bet]

"Ramzni qo'llash va tushunish bir jarayonning ikki tomonidir. Biror matn yoki ifoda uni anglash hamda talqin qilish orqali ko'chma ma'nosi aniqlangandagina ramziylik kasb etadi. [5. Q.Yo'ldoshev 287-bet] Demak, "Oq kema" asarini tushunib tahlil qila olishda yozuvchi qo'llagan ramziy obrazlarni ta'lrim oluvchi topa olishi juda muhimdir. Asarda yozuvchi, albatta, ma'lum bir fikrni ifodalash maqsadida ramziy obrazlarni qo'llaydi, bu obrazlarni esa asarning ajralmas bo'lagidir. Ramziy obrazlarga yuklangan ma'noni topa olish asar tahlilida asosiy bosqichdir. "Ramziylikning asosiy xususiyati undan jo'yali ma'no chiqarish mumkinligi hisoblanadi." (Q.Yo'ldoshev. Badiiy tahlil asoslari. 288-bet) Ziyorak kitobxoniga bu ramziylikni tushuna oladi, ularning asar mazmuniga aloqasini izohlaydi, badiiy mantiq shakllanadi, badiiy asarning o'ziga xos jihatlarini topadi, asar haqida tahlil va xulosalar bera oladi. Oq kema, baliq, bola asardagi ramziy obrazlardir. Bu obrazlarni, avvalo, tanlama tahlil qilish lozim. "Tanlama tahlil - o'rganilayotgan asar mohiyati namoyon bo'ladigan qaysidir bir jihatlar tanlab olinib, ilmiy tadqiq etiladi." (Q.Yo'ldoshev 201-bet) So'ngra bu tahlildan asarni butunligicha yalpi tahlil qilishda foydalanish mumkin.

1. Oq kema- diydor ramzi. Nega aynan bu obraz diydor ramzi sifatida tanlandi? Bola kim bilan diydorlashmoqchi edi? Kimning bunchalik sog'ingandi?

2. Baliq obrazi- erkinlik ramzi. Bola nega aynan baliqqa aylanib qolishni orzu qiladi? (bolaning orzulari, xohish-istiklari, hatti-harakatlari ma'lum darajada cheklangan.) Baliqqa aylansa, uning hayotida qanday o'zgarishlar bo'ladi?

3. Bola - ezgulik ramzi. "Insondagi go'daklik vijdoni xuddi urug'dagi ilk kurtakning o'zginasi, kurtaksiz urug' unib chiqmaydi." (Oq kema 172-bet). Sizningcha ezgulik nima o'zi? Nega aynan asarda ezgulik ramzi sifatida yosh bola tanlab olindi?

Xulosa qilib aytganda, hozirgi zamon adabiy ta'limda innovatsion yondashuvlarni talab qilmoqda. Pragmatik yondashuv biz kutgan natijalarni ta'minlaydigan metodlar sirasiga kiradi. Buni keng ko'lamda qo'llash o'z samarasini beradi deb ishonamiz.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. www.vikipediya.org/
2. Дьюи Джон. Школы будущего. www.Makarenko-muzeum.narod.ru/
3. Kasper G. Can pragmatic competence be taught? / G. Kasper. — Honolulu : University of Hawai'i, 1997. (<http://www.nflrc.hawaii.edu/NetWorks/NW06>) (12.08.06)
4. Chingiz Aytmatov. Oq kema. Янги аср авлоди нашриёти. 2015. – 432 б.
5. Болтабоев Ҳ. Шарқ мумтоз поэтикаси манбалари. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси нашриёти. 2008. – 426 б.
6. Йўлдош Қ., Йўлдош М. Бадиий таҳлил асослари. – Т.: Камалак, 2016. – 464 б.